

**BADIIY ASARLARNI ERKIN TARBIYA TEXNOLOGIYASI
VOSITASIDA O'RGANISH USULLARI**

Saida Nikinbayeva

*Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti
universiteti 2-kurs magistranti*

O'quv fanlarining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq holda har bir fan uchun ayrim pedagogik texnologiyarni ko'proq mos deb hisoblash haqida fikrlar mavjud. Bu borada aytish mumkinki, aslida umumta'lim maktablarida qo'llanilayotgan barcha pedagogik texnologiya turlarini deyarli hamma fanlarni o'qitishda qo'llash mumkin. So'z faqatqaysidir fan uchun qaysidir texnologiya boshqalariga nisbatan ko'proq qo'llanilishi haqida bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, biror fan bo'yicha ayrim mavzudagi darsni tashkil qilish va amalga oshirishda, avvalo, barcha o'quvchilar puxta o'zlashtirishini ta'minlaydigan pedagogik texnologiyalarni tanlash maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, bir xil dars usullarini ko'p qo'llash natijasida, ularning o'quvchilar uchun qiziqarliligi pasayib, qadrsizlanishiga olib kelishi mumkin. Bundan har bir pedagogik texnologiyalarning dars mavzusi bo'yicha eng samarali, vaqt jihatidan tejamlisini ilmiy, metodik va amaliy jihatdan to'g'ri tanlash zarur.

Ko'rinadiki, uzluksiz adabiy ta'limga erkin tarbiya texnologiyasini tatbiq etish o'quv jarayonini o'quvchilarning intellektual imkoniyatlari va individual xususiyatlariga ko'ra muvofiqlashtirishni taqozo etadi. Adabiyot darslarida o'quvchilarning bilish jarayonlari va yosh xususiyatlari, qiqizish va imkoniyatlariga tayanib ish ko'rish, eng muhimi, "o'qituvchi va o'quvchi", "o'quvchi va o'quvchi" o'rtasidagi do'stona muhit erkin tarbiya texnologiyasini samarali qo'llashga keng imkoniyatlar yaratadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfida taniqli qirg'iz adibi Ch.Aytmatovning "Oq kema" asarini o'rganishga erkin tarbiya texnologiyasi asosida yondashish mazmuni quyidagilarni qamrab olishi jihatidan samaralidir:

–har bir o'quvchiga buyuk shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish;

– darsda shunday muhit yaratish kerakki, unda o'quvchi o'zini shaxs deb sezsin, o'ziga bo'lgan yitiborni tuysin;

– bolalarga fikrlash jarayonida tazyiq o'tkazmaslik hamda uning kamchiligini bo'rttirmaslik;

– bilimlarni o'zlashtirmasligi, o'zini yomon tutishi tutishi sabablarini aniqlash va ularni bolaning shaxsiyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda bartaraf etish;

– ta'limda "muvaffaqiyat mihiti"ni tashkil etish, o'qishda ma'lum natijani qozonishga yordam berish, o'z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish.

Erkin tarbiyaga asoslangan mashg'ulotlarni tashkil etish o'quv fani va dars mavzusini o'rgatishda ular bilan bog'liq jihatlarni belgilash; o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish; zarur vositalarni tayyorlash; topshiriqni va uni yechish uchun yetarli shartlarni aniq bayon qilish; noto'g'ri taxminlar asosida chiqargan xulosalar oqibatlarini muhokama etib, to'g'ri yo'lni topishga ko'maklashish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Aqliy faoliyatdagi asosiy jarayon fikrlash jarayoni bo'lib, fikrlashning sifati uning mantiqiyliqi, mustaqilligi, ijodiyliqi, ilmiyliqi, asosliligi, tezligi, tahliliyligi, qiyosiyliqi, maqsadliligi, umumlashtirilgani, xususiylashtirilgani, kengligi, chuqurligi, ishonarliligi, realligi, haqqoniyliqi darajasi bilan belgilanadi. Shu bilan birga intellektual sifatlar xotira, tasavvur, anglash va shu kabi psixologik jarayonlarning tezligi hamda boshqa parametrlari bilan bog'liq.

Erkin tarbiya jarayonida quyidagi tamoyillar, qoidalar va mezonlarga rioya qilish maqsadga muvofiq:

1. Mashg'ulotlarga o'z vaqtida kelish, vaqtdan unumli foydalanish, qabul qilingan intizomiy qoidalarga amal qilish.

2. O'zining va o'zgalarning fikrini qadrlash, fikr-mulohaza bildirishda asosiy maqsaddan chetga chiqmaslik. Tengdoshlarining fikr-mulohazlariga ijobiy munosabatda va ular bilan hamkor, hamjihat bo'lish.

3. O'rinsiz tanqid qilmaslik, tanbeh bermaslik. Har qanday vaziyatda so'zlovchini diqqat bilan eshitish, boshqlar fikri, nuqtayi nazariga keng fyllilik bilanyondashish. Ularni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qila olish. Noto'g'ri fikr bildirganlarga nisbatan keskinlik qilmaslik. Bunday hollarda o'z qarashlarini, haqiqatni aniq, tushunarli, mantiqiy va dalillar bilan asoslab bayon qilish.

4. So'zlashda aniqlikka, tinglayotganlar uchun tushunarli va qisqa gapirishga jiddiy ytibor berish. Boshqalarning so'zini bo'lmaslik, navbat bilan gapirish.

5. Tinglovchilar bilishni xohlagan, ayni vaqtda ular uchun ahamiyatli bo'lgan fikrlarigina bildirish.

6. Qatnashchilar o'z fikrlarini bildirish uchun imkoniyat berish, buning uchun qulay vaziyat yaratish hamda ijobiy munosabat bildirish.

7. Muhokamalarda va o'zaro munosabatlarda xolislik va samimiylikka rioya qilish. Hushyor, sezgir, sergak bo'lish. Ishtirokchilarning jinsi, holatiga qarab munosabatda bo'lish.

Hozirda turli sharoitlarda yashayotgan bolalar shu hayot ta'sirida nimalarni o'rganish imkoniga bo'lish mumkinligi haqida pedagog Doroti Dou Noltning quyidagi fikrlari ahamiyatga molik:

“Bolalar o'zlari yashayotgan hayotdan nimalarni o'rganishadi?”

Agar bola tanqid bilan yashasa, u ayblashni o'rganadi.

Agar bola adovat bilan yashasa, u urishishni o'rganadi.

Agar bola qo'rquvda yashasa, u qo'rquqlikni o'rganadi.

Agar bola afsusda yashasa, u afsuslanishni o‘rganadi.

Agar bolaning ustidan kulishsa, uyatchan bo‘lishni o‘rganadi.

Agar bola qiziqish bilan yashasa, u havas qilishni o‘rganadi.

Agar bola uyat bilan yashasa, u aybdorlik hissini o‘rganadi.

Agar bola qo‘llab-quvvatlash bilan yashasa, u o‘ziga ishonishni o‘rganadi.

Agar bola bag‘rikenglikda yashasa, u sabrli bo‘lishni o‘rganadi.

Agar bola maqtov bilan yashasa, u qadrlashni o‘rganadi.

Agar bola tan olish bilan yashasa, sevishni o‘rganadi.

Agar bola rostgo‘ylik va adolatda yashasa, u haqiqat va adolat nimaligini o‘rganadi.

Agar bola xavfsizlikda yashasa, u o‘ziga va atrofida qilargalarga ishonadi.

Agar bola do‘stlik bilan yashasa, u Yer yuzi yashash uchun ajoyib joy ekanligini anglaydi.

Agar siz osoyishtalik bilan yashasangiz, sizning farzandingiz ham osoyishta yashaydi.

Sizning farzandingiz qanday yashamoqda?"¹.

Tabiiyki, yuqoridagi savollarning har biriga muayyan bir shaxs hayotidagi qaysidir voqealar yoki muayyan asar qahramonining umr lavhalari orqali namunalar keltirish mumkin. Shu o‘rinda ishimizning tadqiqot obyekti bo‘lgan taniqli adib Ch.Aytmatovning “Oq kema” asariga murojaat qilish orqali fikrimizni asoslashga harakat qilamiz.

Qissani o‘rganishda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi “Adabiyot” o‘quv dasturida “Adib haqida qisqacha ma’lumot. Oq kema” qissasida ta’sirchan, beg‘ubor va xayolchan bola timsolining tasvirlanishi, shuningdek, uning qalbiga xos pokiza va ezgu tuyg‘ularning bobosi Mo‘min chol tabiatida ham namoyon bo‘lishi. Go‘zal insoniy tuyg‘ular sohibining manfaatparastlar davrasida yashashi nechog‘lik og‘ir ekanligi bola, Chol va O‘rozqul munosabatlarida aks etishi. Bu holatning bola ruhiyatiga dahshatli ta’siri. Hayotiy voqelik va bolaning xayolot olami o‘rtasidagi shafqatsiz ziddiyatning ko‘rsatilishi. Qabohatlar manbayi qayerdaligini bilmagan va ularga qarshilik qilishdan ojiz gunohsiz bolaning bu bulg‘anch dunyoni tashlab ketishi insonning ma’naviy tanazzuliga qilingan isyon ekanligi. Ona bug‘u obrazi va uning ramziy xususiyati” tahlil qilinishi ko‘zda tutilgan².

¹ Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С.А. Замонавий педагогик технологияларни амалиётга жорий қилиш. –Т.: Fan va texnologiya, 2008. Б. 57.

²Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартини тасдиқлаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. –Т.: www.lex.uz. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 йил 14 (774)-сон, 230-модда. Б. 98.

“Oq kema” qissasini erkin tarbiya texnologiyasi asosida o‘rganishda qo‘llab-quvvatlovchi hamkorlik va erkin ta’limga asoslanish natijalari quyidagilarda akslanadi:

- dars jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirokini rag‘batlantiradigan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- asar yuzasidan turli muammolarni hal etish bo‘yicha ishlash uchun birgalikda harakat qilish;
- teng imkoniyatlar va qarorlar qabul qilishda ishtirok etishga ko‘maklashish;
- qissa yuzasidan o‘z his-tuyg‘ulari va fikrlarini ochiq ifoda etish imkonini berish;
- boshqa o‘quvchilardan biror jihati bilan ajralib turadigan “boshqacha” o‘quvchilarga munosabatda hurmat va tenglikka rioya qilish;
- dars jarayonida har bir o‘quvchining muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun imkoniyat berilishi;
- mavzu yuzasidan qarorlar qabul qilishda ishtirok etishini ta’minlash;
- o‘g‘il va qiz bolalar teng, ular o‘z iqtidorlarini namoyon qilishda bir xil imkoniyatga ega;
- notog‘ri yoki mukammal bo‘lmagan fikrlarni tanqid qilmaslik va boshqalar.

Ma’lumki, o‘quvchilar qissa matni bilan yaqindan tanishmay turib, uning mazmuni, g‘oyasi, yozuvchi ko‘zlagan maqsadi haqida yetarlicha tasavvurga ega bo‘lishlari qiyin. Shu jihatdan yonashganda qissaning to‘liq mutolaasi uchun sinfdan tashqari o‘qishga tavsiya qilish maqsadga muvofiq.

O‘quvchilarning ma’naviy-estetik tarbiyasida katta ahamiyatga ega bo‘lgan mazkur asarni o‘rganishga ajratilgan uch soatni adib umrbayoni, adabiy faoliyati, ijodining jahon adabiyotida tutgan o‘rni hamda qissaning g‘oyaviy ahamiyati xususida so‘z yuritish nuqtayi nazaridan rejalashtirish mumkin.

Yaxshi ayonki, XXI asr boshlarida atrof-muhitga ziyon yetkazuvchilar, sof tabiatni ifloslantiruvchilar safi tobora kengayib, inson sha’ni, qadr-qimmatini toptashga bo‘lgan urinishlar, afsuski, yanada yaqqolroq namoyon bo‘la boshladi. Qissada ana shu illatlar aniq-ravshan ochib beriladi. Ularni bartaraf etish uchun insonda kelajakka umid bilan yashash, tabiat va insonga mehr-muhabbat, shafqatlilik xususiyatlarini tarbiyalash zarur, degan g‘oya falsafiy mushohadalarda badiiy in’ikosini topdi.

Qissa qahramonlari keksa Mo‘min Chol va uning beg‘ubor qalbli nevara bolasi. Mo‘min Cholning sevimli ertakdagi qirg‘iz avlodini saqlab qolgan shoxdor ona bug‘u avlodlariga ixlosi beqiyos. Bu munosabatini bobo nabirasiga ham singdira olgan. Adib kitobxonga Enasoy bo‘ylarida yashagan turkiy xalqlarning uzoq ajdodlari o‘rtasidagi qirg‘inbarot urushlar oqibati, insonga hayvonlarning xayrixohligi haqida qiluvchi ertakni qaytarib, tilsiz mavjudotlarni ayrim jaholat botg‘og‘iga botgan kimsalardan a’lo ko‘radi.

O'qituvchi texnologiya maqsadiga muvofiq holda ana shu fikrlarni asardagi muayyan epizodlar orqali asoslashni yo'lga qo'yishi maqsadga muvofiq. Rejaga ko'ra, darsning uchinchi soati tahlilga bag'ishlanadi. Tahlilda muammoli savollar va muammoli vaziyatlar ustida ishlash nazarda tutiladi.

Erkin tarbiya texnologiyasi o'quvchi faolligi va mustaqilligini faollashtirish va jadallashtirishga qaratilgan. Uning asosi insonning fikrlashi muammoli vaziyatlarni hal etish, muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatini shakllantirish masalasiniham ko'zda tutadi. "Oq kema" qissasini erkin tarbiyaga asoslangan muammoli o'rganishda dars mavzusi bilan bog'liq ziddiyatli holatlarlar tushuntiriladi va ularni topish yo'llaritamsviya etiladi; asardagi muayyan masalaga doir turli nuqtayi nazarlarni bayon qilish; hal etish uchun yetarli bo'lmagan yoki ortiqcha ma'lumotlar bo'lgan yoki savolning qo'yilishi noto'g'ri bo'ga masalalarni yechish taklif etiladi va h.k.

Tahlil jarayonida bahs-munozaraning jonli va tabiiy bo'lishi uchun o'rta tashlanadigan savollar muammoli bo'lishiga va hayotga bog'lanishiga ytibor berish zarur. Texnologiyani qo'llashda insonga, tabiatga mehr-shafqat, ezgulik, johillikka nafrat va kurash, oilaviy totuvlik, ota-onaga mehr, bola tarbiyasidagi ota-ona burchi va mas'uliyatini anglashga yo'naltirish talabi qo'yiladi.

Ayrim johil kishilardan ko'ra insonga bug'uning mehr-shafqati ustun ekanligi ertak g'oyasini tashkil etadi. O'qituvchi bu ertak asosida millatararo do'stlik va ahillik, insonga xayrixohlik g'oyasini ilgari suradi. Mo'min bobo ana shunday tarbiyalangan qahramon darajasidagi inson. Pok qalbli sodda Mo'min boboni kitobxon yaxshi ko'rib qoladi. Bobo o'jar va bemehr kuyovini unChalik yoqtirmaydi. Ammo noilojlik tufayli unga yon bosadi. Farzandsizlik azobida kuyayaotgan qizi Bo'keyni O'rozqulning kaltaklaridan asrash, nabirasining tinchini o'ylab, shoxdor ona buguni otadi. O'quvchi boboning kuchli o't orasida qolib qiynalayotganiga achinadi. O'rozqulning yovuzliklaridan nafratlanadi.

Qissadagi toshdan-toshga sakrab, bolalikning beg'ubor o'y-xayollari qanotida uchib yurgan bola obrazi ham kitobxonda o'ziga nisbatan iliqlik uyg'otadi. Bola qalbida ham tabiatga, uning go'zalligiga mehr paydo bo'lgan. U ana shu go'zallikni, kishini o'ziga rom etuvchi tabiatning sehrini, sirli olamni o'ziga jo etgan olisdagi kichkina maktabni o'z durbinida zavq bilan kuzatadi. Bolaning kundalik sevimli mashg'uloti shu. Ammo u har kuni yangi orzular bilan yangi kunni kutadi.

Bir qarashda bola hayotning sertashvish qo'ynida yashayotgan ko'rinsa-da, farzandsizlik hasratida yonayotgan Bo'key xolasi, o'zini yoshlikdan tashlab ketgan onasi va otasi haqida o'ylaydi. Bu tashvishlarni bolalarga xos intilish va kurash bilan bartaraf etishga intiladi. U bobosi aytib bergan ertaklar sehriga tushadi. Otasini allaqaysi kemada ishlayotganini eshitgan. Shuning uchun ham u Issiqko'ldan har kuni bir marta suzib o'tayotgan oq kemani berilib kuzatadi. U suvga sho'ng'ib baliq

bo'lishni, oq kemaga suzib borib, otasi bilan uchrashishni o'ylaydi. Bolasizligi tufayli deyarli har kuni eridan kaltak yeydigan xolasiga achinadi.

Bo'key xolasini O'rozqul kaltaklaridan qutqarishni izlaydi. Shoxdor ona bug'u o'z shoxida xolasiga oppoq, ichida bola bo'lgan oltin beshik olib kelishini xohlaydi, hatto bunga ishonadi ham. Shuning uchun ham odamlardan arazlab ketgan ona bug'uning yana qaytib kelishini intiqlik bilan kutadi. Tushlarida beshik ko'tarib kelayotgan ona bug'uni ko'radi. Nihoyat, orziqib kutgani – Shoxdor ona bug'uning kelganini ko'rib behad quvonadi. Ammo bug'uni otib, go'shtidan lazzat olayotgan O'rozqul va uning hamtoqvoqlaridan nafratlandi. Ularga qarshi kurashish yo'llarini izlaydi. Biroq ojiz qolgan bola baliqqa aylanib suzib ketmoqchi, butun tashvishlardan qutulmoqchi...

Bola hayotidagi bu voqealar o'quvchilarning o'z hayotlaridagi orzu-o'ylarini yodga soladi. tahlil jarayonida ularga o'zlarining yashash sharoiti bilan bola hayotini solishtirish vazifasi berilgani ma'qul. Bolaning boshiga tushgan tashvishlarni anglash orqali o'quvchilar unga achinadilar, turli ziddiyatlarni eslaydilar, ularga qarshi kurashish xohishi paydo bo'ladi hamda ana shu kurash yo'lini izlaydilar.

Qissadagi bosh qahramon turmushidagi voqealar bolalar hayotida turlicha ko'rinishlarda uchrashi mumkin. Bolalikning beg'ubor olami hamisha ezgulikka, yaratuvchanlikka intiladi. Shuning uchun ham muallif bolalikning pok qalbi va vijdonini urug'ning kurtagiga taqqoslaydi. Bolalikdagi pok qalb va sof vijdon ham dehqon ardog'i, mehnatida unib, o'sib chiqqan urug'dagi kurtak misoli boboning halol tarbiyasi va mehri bilan yetiladi. Shu bois u oq kemaga intiladi.

Qissa qahramonlari taqdiri, kundalik hayoti, o'zaro munosabatlar, bolaning ruhiy olami, kattalar dunyosining murakkabligi, ekologik masalalar, milliy qadriyatlarga bepisandlik kabi muammoli vaziyatlarni hal etishda:

1. Muammolarni turlinuatay nazardan o'rganish.
2. Solishtirish, umumlashtirish.
3. Faktlarni aniqlash va qiyoslash.
4. Vaziyatga bog'liq xulosalar chiqarish.
5. Aniq savollar qo'yish kabi jihatlariga ytibor qaratiladi.

Erkin tarbiyaning asosiy g'oyasi bilimlarni dars mavzusiga tegishli muammolar bo'yicha o'quv-tadqiqotlarini bajarish asosida o'zlashtirishni ta'minlashdan iboratligidir. Bu borada mamlakatimizda bir necha asrlar davomida maktab va madrasalarda suqrotona savol-javob usulidan foydalanish asosida o'quvchilarda ziyraklik, hozirjavoblik sifatlar hamda go'zal nutq tarkib toptirilishiga ahamiyat qaratiladi.

Suqrotona savol-javob usuli hozircha eng samarali ta'lim usullaridan biri sifatida qo'llaniladi. Bunda o'quvchi chuqur mantiqiy fikrlashga, ziyraklikka, aniq va to'g'ri

so‘zlashga, nutqning mantiqiyligi va ravonligiga hamda tanqidiy, ijodiy va erkin fikrlashga o‘rgatiladi.

Erkin tarbiya texnologiyasiga asoslangan qissa tahlilida suqrotona suhbatlarga murojaat qilish asosida o‘qituvchining o‘quvchini mustaqil va faol fikrlash jarayoniga olib kirishi hamda uning fikrlashidagi noto‘g‘ri jihatlarni aniqlagan holda tuzatish yo‘liga olib chiqishdan iborat usullar tushuniladi.

Bunday suhbat bosqichlarini quyidagicha soddalashtirib ifodalash mumkin:

1. Savol-javoblar orqali o‘quvchining bilim darjasi va fikrlash darajasi, ruhiyatidagi o‘zgarishlarni aniqlash.

2. Asar mazmunini o‘quvchi motivlariga muvofiqlashtirish. Bu asosan, o‘quvchining qiziqish va qobiliyatlariga mos bo‘lgan misollar tanlash orqali amalga oshiriladi.

3. O‘quvchini faol muloqotga olib kirish. Bunda asosan rag‘batlantirish usullaridan foydalaniladi.

4. O‘qituvchi go‘yo bilmaydigandek, o‘zini o‘quvchidek tutib, savollar beradi.

5. O‘quvchining to‘g‘ri fikrlarini maqtash orqali uni yanada erkin va chuqurroq fikrlashga, so‘zlashga jalb qilish.

6. Fikrlash jarayonidagi kamchiliklarni aniqlab borish.

7. Xato fikrlarga nisbatan to‘g‘ri fikrlarni yaqqol mantiqiy asoslangan shaklda bayon qilish yoki tushuntirish orqali o‘quvchi uchun muammoli vaziyat yaratiladi va o‘quvchini o‘z kamchiliklarini tuzatishga yo‘naltiradi.

Ko‘rinadiki, ushbu usul erkin tarbiya jarayonida natija berishi shubhasiz bo‘lib, ammo buning jiddiy shartlari ham mavjud. Bular o‘qituvchining keng bilimiga va kasbiy kompetensiyasiga, yuqori muloqot madaniyati, insonparvarligi, adolatligi kabilarda namoyon bo‘ladi.

Qissani suqrotona usulda o‘rganishdagi quyidagi mazmundagi savol-topshiriqlardan ham unumli foydalanish maqsadga muvofiq. Jumladan:

1. Bolaning ikki ertagidan keyinchalik birontasi ham qolmagani haqida nima deya olasiz?

2. Nima uchun bolaning ismi yashirin? Siz bolaga qanday ism qo‘ygan bo‘lardingiz?

3. Bola va sizning tabiatingizdagi qaysidir sifatlar o‘xshashligini sezdingizmi? Ularni solishtirib, bolaning xarakter xususiyatini baholang.

4. Bolaning yolg‘iz, do‘stlari yo‘qligi sababi nimada?

5. Nega bola nega yashirincha yig‘laydi? U yig‘laganda ruhan nimalarga suyanadi?

6. Asarda Mo‘min Cholga “kamdan-kam uchraydigan baxtli odam” deya nisbat beriladi? Sizningcha, bobo baxtlimi? Qaysi epizodlar qahramon haqida bunday xulosalarni berishga asos bo‘ladi, deb o‘ylaysiz?

7. Bola – Mo‘min Chol – Bug‘u – Baliq; O‘rozqul – Seydahmad – Bo‘key xola obrazlaridagi mushtaraklik nimalarda namoyon bo‘ladi?

8. Tabiat va insonlar tasviri o‘rtasida qanday yaqinlik mavjud? Bola nom bergan o‘t va toshlar bilan asar qahramonlari o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?

9. Nima uchun bola baliq bo‘lib suzib ketishni istadi?

10. Asarning “Oq kema” deb nomlanishi sabablarini izohlang.

11. Nega qissa yakunida “Insondagi go‘daklik vijdoni xuddi urug‘dagi ilk kurtakning o‘zginasi, kurtaksiz urug‘ unib chiqmaydi” deyiladi?

Xulosa qilganda, qissa tahlilida erkin tarbiya texnologiyasini qo‘llashmazmuni quyidagilarda o‘z aksini topadi:

– o‘quvchilarda bir-birlarining fikriga hurmat bilan yondashish hissi tarbiyalanadi;

– bildirilayotgan fikr-mulohazalarni ytibor bilan tinglash madaniyati oshadi;

– qarashlarini asoslashga qulay psixologik muhit yaratiladi;

– bayon etilayotgan fikrga o‘quvchi imkoniyati darajasida izoh talab qilinadi;

– darsda o‘quvchilarning erkinli va mustaqilligi qo‘llab-quvvatlanadi va h.k.